



## KONCHILIK TERMINLARINING YASALISH USLLARI

Aziza Azimova

Xalqaro Nordik Universiteti katta o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Konchilik terminlari lingvistik xususiyatlari, yasalish usullari hali hanuzga aniq bir mezonlar asosida tadqiq qilinmagan sohalardan bo'lib kelmoqda. Mazkur terminlarni tahlil qilish tilshunosligimizda dolzab vazifa sifatida turibdi. Ushbu maqolada konchilik terminlarining yasalishining bir necha usullari va ularning lingvistik xususiyatlari yoritib beriladi.

**Kalit so'zlar:** terminologiya, sodda terminlar, qo'shma terminlar, o'zlashma terminlar, prefiks, suffiks, konversiya, semantik, sintaktik, morfologik.

**Abstract:** Linguistic features of mining terms, methods of formation have not yet been researched based on specific criteria. Analyzing these terms is an ongoing task in our linguistics. This article highlights several ways mining terms are formed and their linguistic features.

**Key words:** terminology, simple terms, compound terms, acquired terms, prefix, suffix, conversion, semantics, syntax, morphologic.

**Аннотация:** Лингвистические особенности горных терминов, способы образования до сих пор не исследованы по конкретным критериям. Анализ этих терминов является постоянной задачей нашей лингвистики. В данной статье освещаются несколько способов образования горных терминов и их лингвистические особенности.

**Ключевые слова:** терминология, простые термины, сложные термины, приобретенные термины, префикс, суффикс, конверсия, семантическая, синтаксическая, морфологическая.

## INTRODUCTION

Tilning rivojlanish qonuniyatları va boyish manbalari ichki hamda tashqi manbalar asosida yuzaga keladi. Ichki manba bu tilning boyishida eng asosiy omil hisoblangan holda, oldin qo'llanilib hozirda iste'moldan chiqib ketgan so'zlar yoki so'z yasovchi qo'shimchalar orqali yangi so'z hosil qilingan so'zlarni o'zida mujassam etsa, tashqi manba boshqa tillardan so'z olish orqali namoyon bo'ladi. Shu o'rinda konchilik terminlarining ichki manbalar asosida ya'ni yangi terminlar qanday usullar yordamida yasalishini tahlil qilib chiqamiz. Har bir soha terminlarining o'z ichki manbalari o'zlarining qonuniyatları asosida namoyon bo'ladi. Bunda so'z yasalishining yangi ishlab chiqilgan modellari va usullari orqali amalga oshiriladi. Ushbu strategiyalardan biri - yangi so'zlarni hosil qilish uchun so'zlarni birlashtirish - zamonaviy ingliz tilida boshqacha deb nomlanadi. Ba'zi adabiyotlarda "morphologik-sintaktik so'z yasalishi", "grammatik so'z yasalishi" atamalari qo'llanilsa, ba'zilarida "leksik-sintaktik so'z yasalishi" qo'llanadi. Bu jarayon o'zbek tilshunosligida "sintaktik usul bilan atama yasash"



nomi bilan mashhur. Umumiyligi so'zlarning ma'nosini o'zgartirish orqali xalqaro miqyosda va boshqa ko'plab tillarda qo'llaniladigan yangi atamalar yaratish mumkin. Fan tili millatning umumadabiy tili asosida shakllanadi va rivojlanadi.

Shu bois fan, ilm tili poydevorini umumadabiy tilning leksikasi, so'z yasalishi va grammatikasi tashkil qiladi (H.Dadaboyev,2020;5). Umumiyligi adabiy atamalarning, shuningdek, konchilik atamalarining ta'riflarini o'zgartirish orqali sezilarli miqdordagi xalqaro atamalar boyitiladi. Bu atama yaratish usulining boshqalardan farqi shundaki, bunda yangi fikrni ifodalash uchun yangi shakl hosil qilish o'rniiga, mavjud tayyor so'zga yangi ma'no qo'shiladi. So'z yoki iboranining ma'nosini o'zgartirish orqali nomlashning g'alati tomoni shundaki, atama yoki narsa nomlanayotgan atama yoki narsa bilan doimo umumiyligi ma'noga ega. Yana bir so'z yasalish usullaridan biri bu "morfologik usul" dir. Atamalarni hosil qilishda turli xil qo'shimchalar qo'shish natijasida yangi so'z hosil qilish jarayoni nazarda tutiladi. Bir so'z turkumining ikkinchi bir so'z turkumiga ko'chishi orqali yuzaga keladigan so'z yasalish usuli "Semantik" usulda so'z yasalishi hisoblanadi. Shu qatori qisqartmalarni tahlil qilishda bizning ilmiy tadqiqotimizning bir qismi sifatida semantik jihatdan o'rganilishi mumkin. Shu sababli, konchilik atamalarning to'liq ma'nosini tushunish uchun ularni o'rganish muhimdir.

Konchilik terminlari ham oddiy iste'moldagi so'zlar kabi bir necha xil usullar yordamida yasalgan. Quyida keltirilgan sxema orqali terminlar yasalishini asosan uch xil usulda tahlil qilib chiqamiz:

## 1. MORFOLOGIK

## 2. SINTAKTIK

## 3. SEMANTIK

*Affiksatsiya  
(qo'shimchalar  
qo'shish) usuli*

*Kompozitsiya  
(qo'shma so'zlar)  
usuli*

*Metaforik ko'chish  
usuli*

Morfologik usulda so'z yasashda biz qo'shimchalarga murojaat qilamiz. O'zbek tilida qo'shimchalar qo'llanish usuliga ko'ra 2 ga bo'linadi: so'z yasovchi va shakl yasovchi qo'shimchalar. Konchilik terminlarida asosan so'z yasovchi qo'shimchalarga ko'proq urg'u berib, tahlil qilib chiqamiz. O'zakka yangi so'z yasovchi qo'shimcha qo'shganda bir so'z turkumidan boshqa bir so'z turkumi hosil qilinishi mumkin. Masalan: "bug'lantirish" so'zida "bug" o'zak ya'ni ot so'z turkumiga oid so'zdan "la" so'z yasovchi qo'shimchasi orqali fe'l so'z turkumiga



oid yangi so‘z yasalgan. Ingliz tilida “harmful” (gases) zararli (gazlar) so‘zini oladigan bo‘lsak, “harm” zarar ot so‘z turkumidan “ful” so‘z yasovchi qo‘sishimchasi orqali sifat so‘z turkumiga oid yangi so‘z yasalgan.

Ingliz va Uzbek tilida konchilik terminlarida morfologik usulda so‘z yasalishini qiyosiy tahlil orqali ko’rib chiqamiz:

## 1. O‘zak + So‘z yasovchi

Masalan: O‘zbek tilida konchilik so‘zida “kon” o‘zak “chilik” so‘z yasovchi qo‘sishimcha bo‘lib kelgan. Toshqin so‘zida “tosh” o‘zak “qin” yasovchi qo‘sishimcha vazifasi bajarib kelgan. Endi esa Ingliz tilida morfologik usulda hosil bo‘lgan so‘zlarni ko’rib chiqamiz. “**Exploration**” is the activity of finding oil or gas (Oxford English Dictionary, 2004). “Exploration” konchilikda “Neft va gazni tatqiq qilish” jarayonini anglatadi. Bu so‘zda o‘zak “**Explore**” fe’l so‘z turkumiga oid bo‘lib, “**tion**” ot yasovchi qo‘sishimchaga birikib kelgan. O‘zbek va Ingliz tilida qo‘sishimchalar har doim ham mutanosiblikni yuzaga keltirmaydi. Misol tariqasida o‘zbek tilida shaxs otini hosil qiluvchi qo‘sishimcha sifatida “**chi**” qo‘sishimchasini olsak, uning ingliz tilidagi muqobil variantlari sifatida “**er**”, “**ar**”, “**or**” suffikslarini berishimiz mumkin.

Masalan:

**Miner** (konchi) - a person who works in a mine.

**Manager** (ish boshqaruvchi) - The official in charge of a mine, surface and underground.

**Vendor** (sotuvchi) - A seller. In the case of mining companies, the consideration paid for properties purchased is often a block of treasury shares. These shares are termed vendor shares and are normally pooled or escrowed (HarperCollins, 2019).

Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, “**er**” “**ar**” yoki “**or**” suffikslari har doim ham shaxs oti yasovchi qo‘sishimcha bo‘lib kelmaydi. Masalan: vicar, bursar, nectar, water, tutor, guitar kabi so‘zlarda bir butunlikni tashkil etsa, opener, sharpener kabi so‘zlarda “**er**” qo‘sishimchasi narsa otini hosil qilgan.

Bundan tashqari, ingliz tilida shaxs otini hosil qiluvchi “**ee**” qo‘sishimchasi fe’l so‘z turkumidan ot so‘z turkumi hosil qilishda ishlataladi. **Employee (ishchi)**- a person employed for wages or salary, especially at non-executive level (Oxford English Dictionary, 2004). Shuningdek “**ist**” shaxs oti hosil qiluvchi qo‘sishimchasi asosan ot so‘z turkumidan shaxs otini hosil qilish uchun xizmat qiladi.

Masalan:

“**biologist**” - is a person who studies biology - biolog “**biology**” - biologiya



asosidan hosil bo'lib, "ist" so'z yasovchi qo'shimcha qo'shilganda tovush tushishi hodisasiga uchragan.

**Analyst**- "analyze" so'zning asosi fe'l so'z turkumiga oid bo'lib, tahlil qilmoq degan ma'noni bildiradi va "ist" qo'shimchasi qo'shilib ot so'z turkumiga ya'ni shaxs otiga ko'chishi (tahlil qiluvchi) natijasida fonetik o'zgarish (tovush tushishi) hodisasiga uchragan.

## 2. Qo'shimcha + o'zak

O'zbek tilida old qo'shimchalar (-ser, -no,-ba,-be,-ham) o'zakdan oldin qo'shilishi natijasida yangi so'z hosil qilganidek, ingliz tilida ham prefixlar yordamida yangi so'zlar hosil qilish mumkin. Serharakat (moddalar) so'zida "ser" old so'z yasovchi qo'shimcha va "harakat "o'zak" qism hisoblanadi. Bu kabi old qo'shimchali so'zlar asosan sifat so'z turkumida uchraydi va o'zbek tili uchun xos emas. Ingliz tilida ham bu kabi old qo'shimchali (-un,-in,-im,-ir) konchilik sohasiga oid terminlarni uchratishimiz mumkin.

Masalan:

undetect- aniqlamaslik

## 3. Qo'shimcha+o'zak+qo'shimcha

**Noma'lumlik** (darajasi) so'zida "no" old qo'shimcha, ma'lum o'zak, "lik" ort so'z yasovchi qo'shimcha.

Ingliz tilida esa "**Uncombustable**" (chemical substances) yonmaydiga kimyoviy moddalar.

"**Un**" old qo'shimcha, "**combust**" o'zak, "**able**" sifat yasovchi qo'shimcha hisoblanadi.

## 4. O'zak+qo'shimcha+qo'shimcha

**Yonuvchi** (modda) - "**Yon**" o'zak, "**uv**" 1- so'z yasovchi qo'shimcha, "**chi**" 2- so'z yasovchi qo'shimcha. **Effectiveness** - "**Effect**" o'zak, "**tive**", "**ness**" ot yasovchi qo'shimcha hisoblanadi. Yana bir keng tarqalgan so'z yasash usullaridan bir bu sintaktik usul hisoblanadi. Ya'ni bunda 2 va undan ortiq mustaqil morfemaga ega bo'lgan so'zlarni birikishi yuzaga keladi. Masalan: yer osti (quvurlar), barpo etmoq, temiryo'l, qazib olmoq kabi so'zlarda ikkita mustaqil so'z birikib bitta yangi so'zni hosil qilgan.

Ingliz tilida esa, **Pit top** - the area around the top of a mine shaft.

**Pit bottom** - the area at the bottom of the mine shaft.

**Rock factor** - The number of cubic metres of a particular rock type required to make up one tonne of the material.



**Backwardation** - A situation when the cash or spot price of a metal stands at a premium over the price of the metal for delivery at a forward date.

**Footwall** - The rock on the underside of a vein or ore structure.

**Black smoker** - Volcanic vent found in areas of active ocean floor spreading, through which sulphide-laden fluids escape.

**Rockburst** - A violent release of energy resulting in the sudden failure of walls or pillars in a mine, caused by the weight or pressure of the surrounding rocks.

**Hangingwall** - The rock on the upper side of a vein or ore deposit (Victor Rudenno, 2012).

So'z yasalishi borasida abbreviatsiya usuli ham o'rin egallagan bo'lishiga qaramasadan olimlar bu usulga turli xil yondashishadi. Professor A.Hojiyev abbreviatsiya usulida hosil bo'lgan so'zlarni haqiqiy ma'nodagi so'z yasalishi deb qarash noto'g'ri degan g'oyani ilgari surgan. Chunki yangi so'z qanday usulda yasalishidan qat'iy nazar, yangi bir leksemani bildirishi kerak. Abbreviatsiya usulida esa yangi ma'no ifodalanish kuzatilmaydi, balkim so'z birikmalarining qisqartirilgan shaklidir. Boshqa manbalarda esa abbreviatsiya usuli so'z yasalish usularidan biri sifatida qayd etib o'tilgan. Bunda murakkab so'z birikmalaridan tashkil topgan so'zlarni qisqartirish hodisasi sodir bo'ladi.

Masalan: **NKMK** - Navoiy kon metallurgiya kombinati

**CIL** - Carbon in Leach

**COC** - Cash Operating Costs

Semantik usulda so'z yasalishi bir so'z turkumining boshqa bir so'z turkumiga ko'chishi orqali hosil bo'ladi va lug'aviy ma'nosi bilan bir qatorda gramatik ma'nosi ham o'zgaradi. Masalan: O'zbek tilida "**Ko'k**" so'zi rang ma'nosida sifat so'z turkumiga oid bo'lib (ko'k rangli metallar), "**Ko'k**" osmon ma'nosida ot so'z turkumiga ko'chgan. Ingliz tilida "**Break**" sinmoq ya'ni fe'l so'z turkumiga oid bo'lib, konchilik terminida "Regional shear zone" ya'ni "Keng miqyosdagi mintaqaviy siljish zonasi" ma'nosida qo'llanilgan. Bu kabi misollarni ko'plab uchratishimiz mumkin.

**Breast** - A working face in a mine, usually restricted to a stope.

**Recovery** - The percentage of valuable metal in the ore that is recovered by metallurgical treatment.

**Concentrate** - A fine, powdery product of the milling process containing a high percentage of valuable metal.

**Fold** - Any bending or wrinkling of rock strata.

**Horse** - A mass of waste rock lying within a vein or orebody.



**Overburden:** is non-valuable minerals above ore which must be removed to extract the ore (Victor Rudenno, 2012).

## XULOSA

Yuqorida berilgan tahlillarga ko‘ra, konchilik terminlarini yasalish usullari terminlar maydonining naqadar boyligi va xilma-xil ekanligidan dalolat beradi. Bu sohada keng ishlatilib kelinayotgan so‘zlarimiz oldin oddiy so‘z vazifasida ishlatilib keyinchalik sohaga oid maxsus tushunchani anglatganligi uchun terminga aylangan. Ayrim terminlarimiz boshqa tillarda qanday qo‘llanilgan bo‘lsa yaxlitligicha bu sohaga oid termin sifatida qabul qilingan bo‘lsa, ayrimlari esa tilning ichki boyish imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda qo‘sishimchalar qo‘sish orqali boshqa yangi bir so‘zni hosil qilgan yoki ikki va undan ortiq so‘zlarning qo‘shilishi orqali yangi bir tushuncha, ma’noni ifodalab kelgan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbek Terminologiyasi: o’quv qo‘llanma / Hamidulla Dadaboyev. - Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020 - 5-b.
2. HarperCollins. (2019). Rehabilitate. In Collins English dictionary (8th ed., p. 672).
3. Merriam-Webster’s Collegiate Dictionary, 11th ed., Merriam-Webster, 2003
4. Victor Rudenno. (2012). The Mining Valuation Handbook: Mining and Energy Valuation for Investors and Management.
5. Oxford English Dictionary, 2nd ed. Oxford: Oxford University Press, 2004.
6. Merriam-Webster’s Collegiate Dictionary, 11th ed., Merriam-Webster, 2003.